

**CHARMDAN ATROF MUHITGA CHIQADIGAN CHIQINDILAR SARFINI
KAMAYTIRISH VA CHIQAYOTGAN CHIQINDILARDAN YANGI MAHSULOT
ISHLAB CHIQISH**

Qozoqboyeva Raxnomaxon Odiljon qizi

Namangan davlat texnika universiteti doktoranti

Qayumov Juramirza Abdiramatovich

Samarqand davlata arxitektura-qurilish universiteti professor, t.f.d.

(O'zbekiston respublikasi)

Mamlakatimizda yuqori sifatli charm va mo'yna ishlab chiqarish, shuningdek undan yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, sohada kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida "Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, printsipal jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash" vazifalari belgilab berilgan [1]. Hozirgi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalar teri xomashyosidan yuqori sifatli inson salomatligi va atrof muhitga zarar yetkazmaydigan charm ishlab chiqish va ulardan yuqori qiymatga ega eksportbop mahsulotlar, ichki va tashqi bozor uchun raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Ikkinchi vazifamiz esa, import o'rnini bosuvchi xomashyo va mahsulotlar turini ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirishdir.

Shuningdek, charm va mo'yna ishlab chiqarish korxonalarida inson salomatligi va atrof muhitga chiqadigan chiqindilar sarfini kamaytirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bilamizki, charm va mo'yna ishlab chiqarish xomashyolariga uy va yovvoyi hayvonlar, parranda terilari kiradi. Charm sanoati uchun uy hayvonlaridan: yirik shoxli mollar, ot, eshak, tuya, qo'y, echki, cho'chqa, bug'u va boshqa hayvon terilari xomashyo sifatida ishlatilib kelinmoqda. Hozirgi kunda sifatli charm ishlan chiqarishni ko'paytirish va sifatini standart talablari darajasiga yetkazish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [2,3,4]. Shuni ta'kidlash kerakki, charm sanoati bilan kimyo sanoati mutanosib rivojlanib kelmoqda va yangi-yangi kimyoviy moddalar yaratilmoqda va ularni charm sanoatida qo'llanilib, charm ishlab chiqarish jarayonini takomillashishiga va eksportbop sifatli charm ishlab chiqarish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini ko'tarilishiga katta hissa qo'shmoqda [5,6].

Charm sanoati yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, kiyim-kechak, poyabzal, galantereya va mebel ishlab chiqarishda asosiy xomashyo hisoblanadi. Biroq, charmni oshlash jarayoni ko'plab texnologik bosqichlarni o'z

ichiga olgani sababli, bu sohada organik, mineral va kimyoviy chiqindilar ko'p miqdorda hosil bo'ladi. Ushbu chiqindilarni to'g'ri qayta ishlash va ekotizimga zarar yetkazmaslik hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Charm oshlash jarayonida hosil bo'ladigan asosiy chiqindilar

1. Organik chiqindilar
2. Suyuq chiqindilar
3. Kimyoviy chiqindilar

Charm chiqindisidagi xrom tuzlari tuproqqa tushganda o'simliklar o'sishini sekinlashtiradi, mikroflorani buzadi va tuproq unumdorligini pasaytiradi.

Sulfidlar va xromli oqava suvlar: suvda kislorod kamayishiga sabab bo'ladi, baliq va suv organizmlariga zarar yetkazadi, ichimlik suvlarini yaroqsiz holga keltiradi.

Charm ishlab chiqarishdagi organik qoldiqlar chirishi natijasida: yoqimsiz hidlar, metan va ammiak ajralishi yuz beradi.

Charm sanoati ekologik xavfli tarmoqlardan biri bo'lsa-da, to'g'ri boshqaruv, chiqindilarni qayta ishlash, xavfli moddalarni zararsizlantirish orqali uning tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Innovatsion texnologiyalar, qayta ishlash tizimlari va ekologik standartlar chiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirishga yordam beradi. Natijada, bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki charm sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda tabiiy charmni oshlash jarayonida hosil bo'ladigan organik, mineral va kimyoviy chiqindilarning tarkibi, xususiyati hamda ularning atrof-muhitga ta'siri borasida ko'plab o'rganishlar olib borilmoqda. Charm ishlab chiqarish oqava suvlarining xrom, sulfid va boshqa zararli moddalar bilan ifloslanishi suv resurslari, tuproq unumdorligi va atmosferaga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shuningdek, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ularni qayta ishlash texnologiyalari - xromni regeneratsiya qilish, organik qoldiqlardan biogaz va o'g'it olish, oqava suvlarni biologik va kimyoviy tozalash usullari to'risida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan ekologik yondashuvlar charm sanoatida chiqindilarni resursga aylantirib, atrof-muhitni muhofaza qilishga va barqaror ishlab chiqarishni ta'minlashdir. Shuningdek, charmni oshlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni kamaytirish jarayonlari "YUKSALISH CHARM SANOAT" MCHJ korxonasida tadqiqotlar olib borilmoqda va chiqayotgan chiqindilardan turli hil mahsulotlar ishlab chiqarish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. №PF-4947-T., 08.02.2017
2. Turdieva O.K, Khojiyev A.A. European Scholar Jurnal. Investigation of properties of materials used for multifunctional bag. ISSN:2260-5562. Spain. 2021. Vol. 2, No 3, 2020. Pages:121-126.
3. Xomidjonov A.O,. Anor po'stlog'i asosida xafsiz astarlik charm olishning oshlash texnologiyasini ishlab chiqish. Dissertatsiya. Namangan. 2022
4. Maxammadieva X.N,. Murakkab efir asosida poyabzal ustki qismi uchun charmni yog'lantirish texnologiyasini takomillashtirish. Dissertatsiya. Toshkent. 2022.
5. ГОСТ 940-81. Межгосударственный стандарт. Кожа. Метод определения содержания влаги. 1967, Москва.